



STRESS VA DEPRESSIYANI KELITIRIB CHIQUYUVCHI OMILLAR VA ULARNING PROFILAKTIKASI

Jakbarov Adham Hoshimjonovich

Namangan viloyati Chortoq tumani 18-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada stress haqidagi ma’lumotlar mavjud. Jumladan stressing alomatlari, sabab va oqibatlari, stressing turlari haqidagi ilmiy ma’lumotlar berib o’tilgan. Har qanday kitobxon uchun mo’ljallangan bo’lib, soda va tushunarli tilda berilgan.

Kalit so’zlar: stress, distress, eustress, adrenalin, depressiya, asab tizimi, destruktiv stress, konyuktiv stress, subyektiv stress, emotsiya, his-tuyg’u,

So’nggi paytlarda insonlar orasida deyarli te-tez quloqqa chalinib qoladigan tushunchalar orasida “Stress” termini xam bor. Xo’sh? Stress o’zi nima? U qanday paydo bo’ladi? Stressdan butunlay qutulish mumkinmi degan savollarga javob beramiz. Stress – og’ir, mushkul yoki murakkab sharoitlarda yuzaga keluvchi psixikaning zo’riqishidir. Stressning vujudga kelish sabablari quyidagicha: inson shug’ullanadigan faoliyatning turi, mazmuni, mavjud shart-sharoitlar, faoliyatning tashkiliy qismi va ekstremal omillar, shuningdek, tashqi muhit insonning bor imkoniyatlaridan ortig’ini talab qilishi. Masalan, xizmat faoliyatida talabning ko’payishi ham kuchli stressor hisoblanadi. Bir so’z bilan aytganda stress- inson organizmining haddan tashqari zo’riqish, salbiy emotsiyalar yoki oddiygina zerikishga bo’lgan javob reaksiyasidir. Stress chog’ida inson organizmi yechim izlashga undaydigan adrenalin gormoni ishlab chiqaradi. Kichik miqdordagi stress hamma uchun kerak, chunki bu kishini fikrlashga, muammodan chiqish yo’lini topishga undaydi, stressiz hayot zerikarli bo’lar edi. Boshqa tomondan, agar stress juda ko’p bo’lsa, tana zaiflashadi,



kuchsizlanadi va muammolarni hal qilish qobiliyatini yo'qotadi. Ushbu muammoga bir qancha ilmiy tadqiqotlar bag'ishlangan. Stressning paydo bo'lish mexanizmlari batafsil o'rganilib chiqilgan va juda murakkabdir: ular bizning gormonal, asab va qon tomir tizimlarimiz bilan bog'liq. Stressning sababi aslida insonni ta'sirlaydigan, bezovta qiladigan har qanday narsa bo'lishi mumkin. Misol uchun, tashqi sabablarga biron nima tufayli paydo bo'lgan bezovtalikni kiritisa bo'ladi (ish joyini o'zgartirish, qarindoshning o'limi). Stressning ichki sabablari hayotiy qadriyatlar va e'tiqodlarni o'z ichiga oladi. Bunga shaxsiy baholashi ham kiradi.

Stress va depressiya ayol va erkaklarda taxminan teng darajada uchrashi mumkin. Biroq, har bir organizm o'z xususiyatlariga ega. Agar siz o'zingizda stress haqida so'zlashi mumkin bo'lgan alomatlarni sezsangiz, birinchi navbatda holat sababchilarini aniqlash kerak. Stressning oqibatlaridan ko'ra sabablarini bartaraf etish ancha osonroq. «barcha kasalliklar asabdan» degani yolg'on emas. Klinik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, kichik stresslar tanaga zararli emas, hatto foydali. Ular odamni hozirgi ahvoldan chiqish yo'lini topish uchun rag'batlantiradilar. Depressiya og'irroq, uzoq muddatli shaklga o'tmasligi uchun har birimiz o'zimizni tarbiyalashimiz, irodamizni rivojlantirishimiz kerak. Ko'p odamlar stressga qarshi antidepressantlar, spirtli ichimliklar yordamida kurashishga odatlanishgan. Biroq bunday yo'lni tanlash ularga o'rganib qolish va mutaxxasis yordamsiz ulardan voz kecha olmaslikka olib keladi.

Xavotirlikning turg'unligi hamda davomiyligi inson xatti-harakatida quyidagi holatlarni keltirib chiqaradi: ishtaxaning buzilishi, uyqusizlik, xatti-harakatlardagi sustlik. Bunday fiziologik buzilishlarning davomiyligi insonda stressni paydo qiladi. Organizm esa o'zini himoyalashga, ta'sirni so'ndirishga harakat qiladi. Ammo, ma'lumki, organizmning kuchi cheksiz emas va jiddiy stress vaziyati vujudga kelganda, inson buni ko'tara olmaydi. Natijada turli xastaliklar paydo bo'ladi, stress o'ta kuchli bo'lganda, o'lim holati ham kuzatiladi. Stressning fiziologik, psixologik, shaxsiy hamda tibbiy belgilari mavjud bo'lib, ularning istalgan turi doimo hissiy qo'zg'alish bilan birgalikda kechadi. Stress holatining belgilarini mutaxassislar quyidagicha ajratilgan:



- *fiziologik belgilar*: yurak urishi va nafas olishning tezlashishi, yuz terisining qizarishi yoki oqarishi, terlash, qon tarkibida adrenalin miqdorining ko‘payishi;
- *psixologik belgilar*: psixologik funksiyalar dinamikasining o‘zgarishi, tafakkurning sekinlashuvi, diqqatning bo‘linuvchanligi, xotiraning pasayishi, qaror qabul qilish jarayonining sustlashuvi;
- *shaxsiy belgilar*: irodaning butunlay yo‘qolishi, o‘zini o‘zi nazorat qilishning pasayishi, xulq-atvordagi stereotiplik va sustlik, qo‘rquv, xavotirlik, sababsiz bezovtalik, ijodkorlik qobiliyatining yo‘qolishi;
- *tibbiy belgilar*: nevrozning ortishi, hushdan ketish, affektlar, bosh og‘rig‘i, uyqusizlik.

Stress, dastlab, fiziologik termin sifatida qo‘llanilib, organizmning har qanday yoqimsiz ta’sirlarga nisbatan nomaxsus reaksiyasi («umumiy moslashish sindromi») ni ifodalagan (G. Selye). Keyinroq bu so‘z individning ekstremal vaziyatlardagi fiziologik, biokimyoviy, psixologik holatlari va xulq-atvorini tushuntirish uchun qo‘llangan. Zamonaviy adabiyotlarda “stress” termini uch xil ma’noni ifodalash uchun qo‘llanilmoqda. *Birinchidan*, “stress” tushunchasi ma’nosidan insonda qo‘zg‘alish yoki zo‘riqishni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan istalgan tashqi ta’sirlar (voqea-hodisa yoki qo‘zg‘atuvchilar) tushuniladi. Hozirgi adabiyotlarda shu ma’noda “stressor”, “stress-omil” terminlari tez-tez qo‘llanilayotgani bejiz emas. *Ikkinchidan*, stress insonning subyektiv reaksiyasiga aloqadorlik ma’nosida qo‘llaniladi. Bunda, u insonning ichki ruhiy qo‘zg‘alishi va zo‘riqish holatlarini ifodalaydi; yana bu holat insonda kechadigan hissiyotlar, himoya reaksiyalari va stressogen ta’sirlarni bartaraf etish (coping proessos) ma’nolarida ham talqin qilinadi. Bu jarayonlar funksional tizimning mukammallashuvi va rivojlanishiga, shuningdek ruhiy zo‘riqishni keltirib chiqarishga ham olib kelishi mumkin. *Uchinchidan*, stress namoyon bo‘luvchi talablar yoki zararli ta’sirlarga nisbatan organizmning fiziologik reaksiyasi bo‘lishi mumkin. Aynan shu ma’noda G. Selye va V. Kennon “stress” terminini qo‘llaganlar. Fiziologik reaksiyaning vazifasi



esa, aynan stress «holatini bartaraf etishda ruhiy jarayonlar va xulq- atvor harakatlarining yordamidan iborat».

Stressning namoyon bo‘lishi, uning sog‘liq va faoliyatga ta’sirini o‘rganish shundan dalolat beradiki, stressdan butunlay qutulishning iloji yo‘q lekin uni yengillatish yoki yenga olish barchaning o‘z qo‘lida. Har doim hayotdan zavqlanib yashasa, hayotni go‘zalliklarini ko‘ra olsa, har narsadan zavqlana olsa shundagina hayoti davomida stresslarga kamroq duch keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob.
2. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya «Piter»,1999
3. Ananev B.G. “CHelovek kak predmet poznaniya”. “Piter”, 2001.
4. Drujinina V. “Psixologiya “. Uchebnik. “Piter”, 2003.